

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 4. April 2024

SHOVQIN

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo‘nalishi 2- bosqich 202- guruh talabalari
Rasulov Husanboy Rasuljon o‘g‘li
Alaydinova Malikaxon Ravshanbek qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada shovqin haqida tushunchalar berib o’tiladi. Hozirda shovqin global muammoga aylanib bormoqda. Bu global muammoni oldini olishda hammamiz birdek harakat qilishimiz zarur.

Abstract: This article provides an overview of noise. Nowadays, noise is becoming a global problem. We all need to work together to prevent this global problem.

Аннотация: В этой статье представлен обзор шума. В настоящее время шум становится глобальной проблемой. Нам всем необходимо работать вместе, чтобы предотвратить эту глобальную проблему.

Kalit so’zlar: Shovqin darajasi, detsibel, eshitish kuchi, akustik shovqin, ekologik muammo, shovqin ta’siri.

Key words: Noise level, decibel, hearing power, acoustic noise, environmental problem, noise impact.

Ключевые слова: Уровень шума, децибел, слуховая способность, акустический шум, экологическая проблема, шумовое воздействие.

Shovqin — keng ma’noda nutq va musiqani to‘g‘ri qabul qilishga, xordiq chiqarishga va aqliy mehnatga xalaqit beruvchi begona tovushlar. Shovqin detsibel bilan o‘lchanadi. Masalan, nafas olish, barglarning shitirlashi 10, qattiq gapirish 60—70, transportning shovqini 80—100, reaktiv samolyot ovozi 140—175 detsibelga teng va h.k. Qattiq, suyuq, gazsimon muhitlardagi har qanday tebranishlar, turli dvigatel va mexanizmlar shovqinlarning asosiy manbaidir. Mashinalarning detallarini aniq qilib ishlash, mexanizmlarning tovush chiqarishini pasaytirish, tovushni to‘sadigan, yutadigan va titrashni kamaytiradigan vositalarni qo’llash yo‘li bilan Shovqin kamaytiriladi. Texnika va fizikada davriy bo‘lmagan tartibsiz tebranishlar. Masalan,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

elektron lampalarda elektr tokining tartibsiz tebranishi, o‘tkazgichlarda elektronlarning issiqlik harakati (issiqlik shovqini), Yer va yer atmosferasidan, Quyosh, yulduzlar, yulduzlararo muhit va boshqalardan tarqalayotgan issiqlik nurlanishlari (kosmik Shovqinlar) natijasida Sh. hosil bo‘ladi. shahrining umumiy foydali jihatlari ham bor. Masalan, radioastronomiyada chastotaning ma’lum diapazonidagi shovqin bo‘yicha yulduzlar va boshqalar kosmik jismlarning radionurlanishi tekshiriladi, harbiydengiz texnikasida esa suv osti qayiq va kemalari topiladi. Gigiyenada — odam organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan va turli kasallikkarga sabab bo‘ladigan tovushlar. Odam organizmiga uzoq vaqt ta’sir etishi natijasida markaziy asab sistemasi, tomirlar tonusi, hazm yo‘llari a’zolari, endokrin sistemasi va h.k.ning faoliyati buzilishi, qulqoq og‘irligi, karlik paydo bo‘lishi mumkin. Shovqin ta’sirida harakatning aniq muvozanati buzilib, mehnat unumdoorligi pasayadi. Ortiqcha shovqin odamni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan kuchsizlantiradi. Inson uchun 20—30 detsibel zararsiz hisoblanadi. Bu tabiiy holatdir. Umuman odamga 80 detsibelli Sh. ruxsat etiladi. Qiymati 130 detsibelga teng Sh. inson qulqlarida og‘riq paydo qiladi, 150 detsibelga yetganda chidash qiyin bo‘ladi, 180 detsibelda hatto metall chatnab ketadi. 20-asr 70-yillarida shahar ko‘chalaridagi Sh. 60—70 detsibelni tashkil qilgan, 21-asr boshida bu ko‘rsatkich 100 detsibel va bundan yuqori qiymatga yetdi. Shovqinning inson salomatligiga ta’siri haqida ibtidoiy jamoa davridan ma’lum. Uning ta’sirini kamaytirish uchun, mas, temirchilar, tunukachilar va misgarlarning kechasi ishlashi taqiqlangan. Rim diktatori Yuliy Sezar kechalari shaldirab yuradigan aravalarning shahar ko‘chalarida yurishini taqiqlagan. Odam organizmiga shahrining ta’sirini oldini olish uchun hozir ham ba’zi tashkiliy, texnik va tibbiy choratadbirlar ko‘riladi. Aholi yashaydigan punktlarda shahriga qarshi kurash choralar: ko‘kalamzorlashtirish, ko‘cha harakatini tartibga solish, transportlar signalini man etish, turar joy binolariga tovush o‘tkazmaydigan oynali (mas, plasmassa, alyuminiy) derazalar qo‘yish, lift, nasos, ventilyator kabi uskunalar Sh.ini kamaytirish va h.k. Ishlab chiqarishda shahriga qarshi kurash choralar: Sh.siz texnologik jarayonlarni qo‘llash, yangi uskunalarini Sh. o‘lchovi nazoratidan o‘tkazish, korxona binosini tovushdan izolyatsiya qilish, tovush yutuvchi qurilish materiallari ishlatish va boshqalar Shuningdek, sershovqin sex ishchilari individual himoya vositalari bilan ta’milanadi. Bunday ishchilar shifokor (terapevt, otolaringolog, nevropatolog) ko‘rigidan o‘tkazib turiladi va h.k. Shahar shovqininining doimiy ravishda oshib borayotgan darajasi inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, dedi Rossiyada I.I. Mechnikov nomidagi Shimoliy-G‘arbiy davlat

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

tibbiyot universitetining kommunal gigiyena kafedrasi mudiri Kirill Fridman. Uning so‘zlariga ko‘ra, odamlar shahar shovqiniga tez moslashadi. Uning organizm, binolar, ko‘priklar va yodgorliklarga qanchalik ta’sir qilishini xayollariga ham keltirishmaydi. Ekspertning ta’kidlashicha, doimiy yuqori shovqin darajasi faqatgina eshitish a’zolariga tahdid solmaydi.

«Asab tizimi orqali doimiy shovqin ta’siri nevrozlarni, nobarqaror ruhiy holatni keltirib chiqaradi», – shifokor shovqindan kelib chiqadigan kasallikkarni sanab o’tdi. Bu yurak-qon tomir kasallikkari, gipertenziya va hatto miokard infarktiga olib kelishi mumkin. Shovqinning asosiy manbai shahar transportidir. Misol uchun, Sankt-Peterburg markazida hatto avtomobillar unchalik ko‘p yurmaydigan ko‘chalarda ham shovqin darajasi kunlik me’yordan 20 detsibelga ortiqdir. Mutaxassisning izohlashicha, gap tarixiy binolarning o‘ziga xos xususiyatlarda. Binolarning yaqin joylashishi tufayli tovush tebranishlari yana-da kuchayadi. Shifokorlar shovqinli joylardan iloji boricha qochishni tavsiya etadi. Kvartiralarda tovushni susaytiruvchi vositalardan foydalanish lozim. Shu bilan birga, hovlilar orqali har kuni piyoda yurishni rejalashtirish darkor. Shovqin axoli yashaydigan joylarda asosan samolyotlarning chiqargan kuchli tovushlaridan, temir yo’llari transportlarning gurullagan tovushlaridan, har xil mexanizmlarning ishqalanishi va bir-biriga urilishidan - eng asosiysi transportlarning harakatlanishi natijasida paydo bo’ladi. Shovqinning uzoq muddatli ta’siri natijasida inson organizmiga o‘zining ta’sirini etkazadi. Shovqinning inson organizmiga ta’siri natijasida insonning eshitish qobiliyati pasayadi, nerv va yurak sistemalarining ish faoliyati buziladi va tez toliqish, uzini zaif his etish alomatlari sezilib turadi. Izlanishlar va tajribalar shuni ko’rsatadiki, shovqinning inson organizmiga ta’siri natijasida inson organizmidagi uzgarishlar - zaharli moddalar ta’siridan ham kuchli hisoblanadi. Shovqin paydo bulish asosida - egiladigan (plastik) jismlarning mexanik tebranishlari turadi. Eshitish organlari 16-20000 Gs li tovush tebranishlarni qabul kiladi. 1-16 Gs chastotali tebranishlar- infratovushlarga, 20000 Gs tebranishlar-ultratovushlarga kiradi. Fiziologik nuktai nazardan inson - past, urta va baland tovushlarni fark kiladi. Biz har kun eshitadigan tovushlar bir-biridan fark qiladi. Inson quloqlarining sezuvchanligi tovush chastotalariga bogliqdir. Insonning eshitish organlari eshitilgan tovushlarni balandligini, tembrini va kuvvatini farq kiladi. Tovush quvvati yoki tovush shiddati tebranishlar amplitudasi tomonidan aniqlanadi. Tovush balandligi esa tovush tebranishining chastotasi tomonidan aniklanadi. Tovush chastotasi kam bulsa - u past eshitiladi, tovush chastotasi katta bulsa u baland

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

eshitiladi. Shovqinlarni quyidagi chastotalarga bo'linadi: past chastotali (350 Gs gacha), o'rta chastotali (350 Gs dan 800 Gs gacha), baland chastotali (800 Gs dan baland bulgan). Baland chastotali tovushlar inson eshitish organlariga uz ta'sirini ko'rsatadi. Shaxarlarda asosiy tovush manbalari- avtotransport, temir va xavo yullari transportlari va sanoat korxonalari xisoblanadi. Avtotransport. Shovqin asosan shaharlarning magistral, ya'ni asosiy kuchalarida kayd etilgan. Urta intensiv xarakatda- 1 soatda 2000-3000 transport birligi kayd etilgan. Shovqinning maksimal darjasasi 90-95 dBA - ga teng. Transport harakatining (oqimining) shovqin xarakteristikasi birinchi navbatda yul kategoriyasiga bog'liqdir. Ko'chadagi shovqin darjasasi transport xarakatining intensivligi, tezligi va xarakteridan aniklanadi. Sanoatlashgan shaharlarda og'ir yuk tashish transportlarning harakati nihoyatda ko'pdir. Shovqin darajasining balan bulishi ogir yuk mashinalarning va dizel dvigatelli mashinalarning harakatiga bog'liqdir. Avtomobil qatnov yo'llarida paydo bo'lgan shovqin har tomonga tarqaladi. Havo transporti. Kup shaharlarda shovqin darjasining baland bulishiga xavo transportlarining aloxida ta'siri borligi qayd etilgan. Fuqaro aviasiyasining parklari yildan yilga yangilanib turibdi, avialiniyalarda esa yangi turboreaktivli va turbovintli samolyotlar paydo buliyapti. Katta bulgan aerodrom va aeroportlar kurilmoxda, eski aeroportlar va aerodromlar rekonstruksiya kilinmokda, yo'lovchi va yuk tashish yildan yilga ko'paymokda. Fuqaro aviatsiyasining aeroportlari aholi yashaydigan joylarda joylashgan, lekin uning havo yullari ko'p aholi yashaydigan shaharlar ustidan utadi. Aksincha, ba'zilar umrining oxirigacha shovqin darjasasi baland bulgan joylarda ishlasak ham eshitish kobiliyatlariga ta'sii bulmaydi. Kupgina shaxarlarda shovqin - inson hayot faoliyatini 8-12 yilga kamaytiradi. Baland darajali shovqin - insonning nerv va yurak sistemalarining buzilishiga, psixik tolkish, vegativ nevroz kasalliklariga olib keladi. Shovqin odamlarning dam va ishlashiga xalaqit beradi, mexnat unumdarligini pasaytiradi. Katta yoshdagи odamlar shovqinni tez his qila oladi. Shunday kilib, odamlar 27 yoshida shovqinga 46,3 %, 28-37 yoshlarida 57 %, 38-57 yoshlarida 62,4 %, 58 va undan katta yoshlarda-72% o'zining sezgirligini kursatadi. Shovqinning ta'sirida inson organizmining boshka organlariga xam uzgarishlarni xam kurish mumkin. Masalan, yurak ritmining tezlanishi, inson miyasini aktivligini pasayishi va boshqalar. Aviatsiya shovqinlarning kamaytirish muammolari - bu uning paydo bulish manbalarida shovqin darajasini kamaytirishdan iboratdir. Turboventilyatorli dvigatelli samolyotlarning shovqin paydo kilitsh manbalari- ventilyator va reaktiv oqim xisoblanadi. Shovqin darajasini kamaytirishda akustik motogondan va dvigatellardan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

foydalanimiladi. Bundan tashqari tovush so'ndirgichlardan keng foydalanish yo'lga qo'yilgan. Sanoat korxonalari. Aholi yashaydigan shovqin manbalaridan biri- sanoat korxonalari hisoblanadi. Sanoat korxonalarida va uning sexlarida xar xil texnologik qurilmalardan foydalanimiladi. Masalan, to'qimachilik fabrikalarining sexlarida, asosan to'qish sexlarida shovqin darajasi 90-95 dB tashkil etadi. Mexanik va instrumental sexlarida shovqin darajasi 85-92 dB, kompressor stansiyalarining mashina zallarida shovqin darajasi 95-100 dB tashkil etadi. Shovqin darajasini kamaytirish uchun - katta bulgan ventilyasiya qurilmalarida, kompressor stansiyalarida shovqin so'ndirgichlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shovqinnig inson organizmiga ta'siri. Insonning eshitish organlari ba'zi doimiy va takrorlanib turadigan shovqinlarga moslanishi mumkin, ammo bu eshitish kobiliyatining zaif bulishidan saqlab qolmaydi. Shahar shovqinlari sharoitida eshitish analizatori doim tarang xolda buladi. Bu eshitish kobiliyatining pasayishiga olib keladi. Shovqin darajasi 70 dB bulganda, so'zlash anikligini kiyinlashtiradi. Shovqinni ulchash uchun shumomerlardan foydalanimiladi.

Xulosa: Hozirda shovqin darajasining yuqorilab borishi inson salomatligiga katta ta'sir ko'rsatib bormoqda. Shaharlardagi, suv osti kemasidagi, avtotransport, fabrikalar, zavodlar va hamda turli xil texnikalardan chiqayotgan shovqinlar ekolojyaning tubdan o'zgarib ketishiga sababchi bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Mustafayev, S.O'roqov, P.Suvonov. “Umumiylar ekologiya”. (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti), Toshkent — 2006...
2. P.Sultonov. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari”. “Musiqa” nashriyoti. Toshkent_2007...
3. O'E.Xo'janazarov, SH.T.Yakubjonova. “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish”. Toshkent_2018...
4. H.T. Tursunov, T.U. Raximov. “Ekologiya”. “NIF MSH”. Toshkent_2020...
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shovqin>
6. <https://azkurs.org/1-shovqin-va-uning-inson-salomatlighiga-tasiri.html>
7. <https://yuz.uz/uz/news/shovqinning-salbiy-tasiri-va-xavfi-tadqiq-qilindi>
8. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/ekologiya/shovqinning-inson-salomatlighiga-ta-siri>